

## **O'ZBEK VA TURKMAN TILLARIDA OT SO'Z TURKUMINING EGALIK KATEGORIYASI**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI*

*o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi*

*2-kurs magistranti Xummedova O'g'ilnavot*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek va turkman tillarida ot so'z turkumida egalik kategoriyasining qanday bo'lishini, qanday qo'shimchalar orqali ifodalanishini, egalik kategoriyasining ikki tilda farqli va o'xshash jihatlarini ko'rishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar.** Egalik kategoriyalari, egalik affikslari, birlik va ko'plik, unli va undosh

O'zbek tilida ot so'z turkumi boshqa turkumlardan bir necha belgi — xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular quyidagilardan iborat: **a) yasalish xususiyatiga ega:** *ishchi, suhbatdosh, paxtakor, bog'bon, oshpaz;* **b) son-miqdorni bildirish xususiyatiga ega:** *bola — bolalar, daftar—daftarlari;* **v) egalik ko'rsatkichiga ega:** *otam, otang, otasi — otamiz, otangiz, otalari;* **g) kelishik shakllari bilan o'zgaradi:** *maktab, matabning, matabni, matabga, matabda, matabdan.* Bu xususiyatlarni grammatik kategoriyalar desak ham bo'ladi. Ya'ni ot so'z turkumi uchta grammatik kategoriyaga ega: 1. son kategoriyasi; 2. egalik kategoriyasi; 3. kelishik kategoriyasi. O'zbek va turkman tillarida ot so'z turkumida egalik kategoriyasining qay usulda bo'lishini ko'rib chiqaylik.

Muayyan narsaning uch shaxsdan biriga taalluqli ekanligini anglatuvchi umumiy ma'nolar va ularni ifodalovchi shakllar tizimi **egalik kategoriyasi** deyiladi. Shuningdek, egalik kategoriyalari predmet tushunchasini konkretlashtirish, ma'no doirasini toraytirish kabi ma'nolarni anglatadi: kitob (umumiy), kitobim (meniki) kabi. Egalik affikslari bilan turlangan kitobim, kitobing, kitobi so'zlaridagi -im, ing, -i affikslari kitob so'zi bilan ifodalangan predmetning so'zlovchi (birinchi shaxs), tinglovchi (ikkinchi shaxs) yoki o'zga (uchinchi shaxs)ga qarashli ekanligini bildiradi. Demak, egalik predmetning uch shaxsdan biriga — so'zlovchi, tinglovchi yoki o'zgaga tegishli ekanini ko'rsatadigan grammatik kategoriyadir. Tegishlilik, egalik ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladigan affikslarni esa **egalik affikslari** deymiz. Egalik affikslari quydagicha:

<b>Undosh bilan tugagan so'zlar oxiriga</b>	<b>Unli bilan tugagan so'zlar oxiriga</b>
---	---

Birlik	Ko‘plik	Birlik	Ko‘plik
1-shaxs. -im; kitob+im	-imiz; kitob+imiz	-m; olma+m	-miz; olma+miz
2-shaxs -ing; kitob+ing	-ingiz; kitob+ingiz	-ng; olma+ng	-ngiz; olma+ngiz
3-shaxs -i; kitob+i	-lari; kitob+lari	-si; olma+si	-lari; olma+lari

Egalik affikslari o‘zları qo‘silib kelgan predmet ma’nosini bildiruvchi so‘zning qaratuvchisini anglatib turadi. Shuning uchun ham, odatda, o‘sha so‘z oldidan alohida qaratqichning bo‘lishi talab qilinmaydi. Agar egalik affikslari olgan so‘zdan oldin qaratqichni ko‘rsatuvchi so‘z kelsa, qaratqich uqtirish, ta’kidlash kabi alohida semantik vazifani bajaradi:

Stilistik maqsadga ko‘ra ikkinchi shaxs egalik affiksi birlik formada shu shaxsning ko‘pligi uchun (senlarning daftaring kabi) yoki, aksincha, ko‘plik formada birlik uchun (sizning onangiz kabi) qo‘llanishi mumkin. Bulardan birinchi holatda tinglovchini sensirash, kamsitish, ikkinchi holatda esa sizlash, hurmat qilish ma’nosini ifodalangan.

Agar uchinchi shaxs egalik affiksi ko‘plik ko‘rsatkichi bilan birga qo‘llanilsa, hurmat, kesatiq, hazil kabi ma’nolarni bildirishi mumkin: *O‘zlarining ahvollarini bilgani keldim* kabi. Hurmatga noloyiq shaxsga nisbatan hurmat formasi qo‘llanganda kesatish ma’nosini anglashiladi. Bunday holatda intonatsiya katta rol o‘ynaydi.

Egalik affiksi, odatda, ko‘plik sondagi otga ko‘plik qo‘sishimchasidan keyin qo‘siladi: *opalarim kabi*. Egalik affiksi ko‘plik qo‘sishimchasidan oldin kelsa, hurmat ma’nosini ifodalanadi: *opamlar kabi*.

Birinchi va ikkinchi shaxsda grammatick son shu qo‘sishimchani olgan otdan anglashilgan predmet sonini emas, balki qaratuvchi shaxsning grammatick sonini bildiradi: *bizning muktabimiz*, *sizning muktabingiz* kabi. Bunda qaratuvchi shaxslar biz, siz va qaralmishdagi -imiz, -ingiz ham qaratuvchining ko‘pligini bildiradi. Uchinchi shaxs egalik affiksi birlik va ko‘plik uchun umumiy bo‘lib, predmetning

birlik yoki ko‘plikka aloqadorligi qaratuvchining grammatic son formasiga qarab belgilanadi: *uning kitobi, ularning kitobi*.

Bulardan tashqari, ot yoki olmoshlarga **-niki** affiksi qo‘shish bilan ham egalik ma’nosini ifodalash mumkin. Bunda egalik ifodalovchi so‘z kesim vazifasini bajaradi: *Bu boyliklar bizniki. Kitob kutubxonaniki kabi.*

Turkman tilida egalik kategoriyasini “**degişlilik kategoriýasy**” deb nomlashadi. Qo‘shilgan so‘zingdan anglatadigan tushunchaning, predmetning, narsaning va boshqa-da shunga o‘xhash birlik va ko‘plikda biror bir shaxsga tegishliligin anglatadigan shakllarga “degişlilik kategoriýasy” deyiladi. Shu grammatic ma’noni anglatadigan qo‘shimchalarga “**degişlilik goşulmalary**” ya’ni egalik qo‘shimchalari deb atashadi. Turkman tilida egalik qo‘shimchalari quydagicha:

<b>Çekimsiz gutaran sözler</b> (Undosh bilan tugagan so‘zlarga)		<b>Çekimlü gutaran sözler</b> (Unli bilan tugagan so‘zlarga)	
<b>Birlik sany</b> (Birlikda)	<b>Köplük sany</b> (Ko‘plikda)	<b>Birlik sany</b> (Birlikda)	<b>Köplük sany</b> (Ko‘plikda)
1. -ym, -im, -um, -üm;	-ymyz, -imiz, -umuz, -ümiz;	-m;	-myz, -miz;
2. -yň, -iň, -uň, -üň;	-yňyz, -iňiz, -uňiz, -üňiz;	-ň;	-ňyz, -ňiz;
3. -y, -i;	-y, -i;	-sy, -si;	-sy, -si;

Jadvaldagagi kabi egalik qo‘shimchalari xilma-xilligi bilan farqlanadi. Unli va undoshlar bilan tugagan so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganida ba’zi egalik qo‘shimchalari o‘zgaradi, ya’ni unlilar turkman tilida bir nechta guruhlarga ajratiladi. Shu ajralishga qarab qo‘shimchalar qo‘shilganida o‘zgarish yuzaga keladi. Turkman tilida unlilar 3 ta guruhga bo‘linadi va ular unlilarni “Çekimliler” deb nomlashadi. Quydagicha guruhlarga ajratiladi:

1-guruh:

1. Ўогын çekimliler( yo‘g‘on unlilar) : a, o, u, y;

2. Ince çekimliler( ingichka unlilar): e, ä, i, ö, ü;

2-guruh:

1. Dodaklanýan çekimliler( lablangan unlilar): o, ö, u, ü ;

2. Dodaklanmayan çekimliler( lablanmagan unlilar): a, e, ä, i, y;

3-guruh:

1. Giň çekimliler ( keng unlilar): a, e, o, ö;

*2.Tor unlilar: i, u, ü, y;*<sup>1</sup>

1. Lablanmagan yo‘g‘on va ingichka unlilar bilan kelgan bir va ko‘p bo‘g‘ilnli so‘zlarga 1-shaxs birlik uchun **-ym**, **-im**, 1-shaxs ko‘plik uchun **-ymyz**, **imiz** qo‘shimchalari qo‘shiladi. Masalan: **at+ym**, **at+ymyz**, depder+**im**, depder+**imiz**..

Lablangan yo‘g‘on va ingichka unlilar bilan kelgan va undosh bilan tugagan, bir va ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga 1-shaxs birlik uchun **-um**, **-üm**, 1-shaxs ko‘plik uchun **-umyz**, **ümiz** qo‘shimchalari qo‘shiladi. Masalan: **top+um**, **top+umyz**, **göz+üm**, **göz+ümiz**..

2. Lablanmagan yo‘g‘on va ingichka unlilar bilan kelgan va undosh bilan tugagan, bir va ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga 2-shaxs birlik uchun **-yň**, **-iň**, ko‘plik uchun **-yñyz**, **iňiz** qo‘shimchalari qo‘shiladi. Masalan: **at+yň**, **at+yñyz**, depter+**iň**, depter+**iňiz**...

Lablangan yo‘g‘on va ingichka unlilar bilan kelgan va undosh bilan tugagan, bir va ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga 2-shaxs birlik uchun **-uň**, **-üň**, ko‘plik uchun **-uñyz**, **-üñiz** qo‘shimchalari qo‘shiladi. Masalan: **top+uň**, **top+uñyz**, **göz+üň**, **göz+üñiz**..

3. Lablanmagan va lablangan, yo‘g‘on va ingichka unlilar bilan kelgan va undosh bilan tugagan, bir va ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga 3-shaxs birlik va ko‘plik uchun **-y**, **-i** qo‘shimchalari qo‘shiladi. Masalan: **at+y**, depter+**i**, **top+y**, **göz+i**...

Oxiri unli bilan tugagan otlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganida bir nechta fonologik o‘zgarishlar yuzaga keladi. Unli bilan tugagan, 1-shaxs birlik uchun **-m** affaksi, ko‘plik uchun **-myz**, **-miz** qo‘shimchalari qo‘shiladi. Masalan: **kaka+m**, **kaka+myz**..

2-shaxs birlik uchun **-ň** affaksi, ko‘plik uchun **-nyz**, **-ňiz** qo‘shimchalari qo‘shiladi. Masalan: **kaka+ň**, **kaka+nyz**...

3-shaxs birlik va ko‘plik uchun ya’ni ikkalasi uchun ham **-sy**, **-si** affikslari qo‘shiladi. Masalan: **kaka+sy**, **eje+si**..

Yuqoridagi qoidalarga amal qilmaydigan ba’zi so‘zlarimiz ham bor. Masalan biz yuqorida turkman tilida unli va undosh bilan tugashiga qarab har xil egalik qo‘shimchalari olishini ko‘rdik. So‘z tarkibida lablangan va lablanmagan unlilarning mavjudligiga qarab, egalik qo‘shimchalari o‘zgarishini kuzatdik. Ammo ba’zi so‘zlar bu qoidaga amal qilmaydi, ya’ni orfografik o‘zgarish yuzaga keladi. Masalan, **käse** so‘ziga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganida:

1-shaxs: **kasä+m**, **käsä+miz**;

2-shaxs: **kasä+ň**, **käsä+ňiz**;

3-shaxs: **kase+sy**, **käse+sy**

Misollarda ko‘rib turganimizdek, käse so‘zi tarkibidagi **-e** unlisi 1-2-shaxs egalik qo‘shimchalarini olganida **-ä** unlisiga o‘zgaryabdi.

Turkman tilida egalik ikki yo‘l bilan yasaladi.

<sup>1</sup> Häzirki zaman türkmen dili. morfologiya. Ýokary we orta hünär okuw mekdepleri üçin okuw gollanmasy – A.: Türkmen döwlet neşir ýat gullugy, 2015.

1. Morfologik yo‘l bilan egalik yasalganida egalik qiluvchi subyektga, egalik qiluvchi predmet, narsa, tushunchaga qo‘shilgan egalik qo‘shimchasi ham bir so‘zda jamlanadi. Masalan: galam+**ym**, galam+**yň**, galam+**y**, galam+**ymyz**, galam+**yňyz**, galam+**y**
2. Morfologik-sintaktik yo‘l bilan egalik anglatilganida egalik ikki komponentli ismlar bilan yasalib, 1-2-shaxs birligi va ko‘pligida, birinchi komponent olmoshlardan, 3-shaxs otlardan yoki olmoshlardan iborat bo‘ladi. Masalan: *meniň kitabym*, *seniň kitabyň*, *onuň kitaby* // *kitaphananyň kitaby*// *okuwçynyň kitaby*, *mugallymyň kitaby*.<sup>2</sup>

Egalik qaratqich kelishigida kelgan so‘zning oxiriga **-ky**, **-ki** qo‘shimchalari qo‘shilganida bir yoki ikki komponentli bo‘ladi. Masalan: *men+iň+ki* yoki *kitap meniňki*, *sen+iň+ki* yoki *kitap seniňki*, *o+nuň+ky* yoki *kitap onuňky*. Bularning birinchisida ya’ni *meniňki* so‘zida egalik qiluvchi subyekt aniq bo‘lib, egalik qilinadigan predmet yoki narsa aniq emas. Ikkinchisida ya’ni *kitap meniňki* gapida egalik qiluvchi subyekt ham, predmet yoki narsa ham alohida-alohida so‘z bilan anglatilgan.

Egalik anglatadigan ism so‘z tarkibining birinchi komponenti qaratqich kelishigini, ikkinchi komponenti bo‘lsa egalik affiksiz qo‘llanadi. Ya’ni birinchi komponent qaratqich kelishigi bilan kelsa, ikkinchisi egalik qo‘shimchalarini olmaydi. Masalan: *Beg Hemraýym, siziň ilde näler bar?* (*Sayatly-Hemra*)

Egalik so‘z tarkibining birinchi komponenti formal jihatdan qaratqich kelishgisiz kelganida ikkinchi komponenti egalik kategoriyasining 3-shaxsda keladi. Masalan: *iş günü*, *bahar aýy*, *aýdymçylar topary*.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, turkman va o‘zbek tillarida egalik kategoriyalarining o‘xhash va farqli jihatini yoritish orqali ikki tilda qanday bo‘lishini va qanday o‘zgarishlar mavjudligini bilib oldik. Farqli jihat shundaki, turkman tilida unlilarning ko‘pligi va undosh bilan tugagan so‘zlar oxiriga unlilar lablangan, lablanmagan, yo‘g‘on, ingichkaligiga qarab egalik qo‘shimchalari qo‘shiladi. O‘xhash jihatlari esa juda ko‘p. Masalan, o‘zbek tilida ham turkman tilida ham egalikni anglatuvchi **-niki** qo‘shimchasining mavjudligi. Masalan: turkman tilida *meniňki*, o‘zbek tilida *meniki*. Bu affikslarda farqli jihat ham mavjud. O‘zbek tilida **-niki** affksi qo‘shilsa, turkman tilida **-ky**, ki ko‘rinishidagi affikslari qo‘shiladi, lekin ikkalasi ham egalikni anglatadigan qo‘shimchalardir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mahmudov N, Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi — T.: “O‘qituvchi”, 1995

<sup>2</sup> Häzirki zaman türkmen dili. morfologiya. Ýokary we orta hünär okuwy mekdepleri üçin okuwy gollanmasy – A.: Türkmen döwlet neşir ýat gullugy, 2015.

2. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov, Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. “O‘qituvchi”, -T.: 1980
3. Amonov U. Ona tili (Morfologiya).- T.: “Durdona” nashriyoti, 2021
4. Häzirki zaman türkmen dili. morfologiýa. Ýokary we orta hünär okuw mekdepleri üçin okuw gollanmasy – A.: Türkmen döwlet neşirýat gullugy, 2015.
5. Gurbanguly Berdimuhamedow. Döwlet adam üçindir. Aşgabat, 2007
6. Türkmenistanyň Prezidenti Gurbanguly Mälikgulyýewiç Berdimuhamedow. Gysgaça terjimehal, Aşgabat, 2007
7. Gurbanguly Berdimuhamedow. Döwlet guşy. Aşgabat, 2013
8. Türkmen dili. Morfologiýa. Ýokary okuw mekdepleri üçin okuw kitaby. – A.: Türkmen döwlet neşirýat gullugy, 2018